

SALOMATLIK IMKONIYATLARI CHEKLANGAN INSON TUSHUNCHASINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING IJTIMOY MOHIYATI

Umurzaqov Ilyosjon Mehmonaliyevich

Andijon davlat tibbiyot instituti

Anezteziologiya va reanimatsiya bo'limi vrach-ordinatori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21936887>

Annotatsiya: mazkur tadqiqotda salomatlik imkoniyatlari cheklangan inson tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari va ijtimoiy mohiyati tahlil qilinadi. nogironlikning tibbiy, ijtimoiy va inson huquqlariga asoslangan yondashuvlari, salomatlik imkoniyatlari cheklangan shaxslarning ijtimoiylashuvi, integratsiyasi va inklyuziyasi masalalari tadqiq etiladi. shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy stereotiplar va kamsitishlarning ushbu shaxslarning ijtimoiy hayotdagi ishtirokiga ta'siri yoritilib, ularning jamiyatda teng huquqli va faol subyekt sifatida ishtirokini ta'minlashning ilmiy-amaliy jihatlari asoslanadi.

Kalit so'zlar: salomatlik imkoniyatlari cheklangan shaxs, nogironlik, ijtimoiy mohiyat, ijtimoiylashuv, integratsiya, inklyuziya, ijtimoiy reabilitatsiya, ijtimoiy diagnostika, inson huquqlari.

Аннотация: в исследовании анализируются научно-теоретические основы понятия человека с ограниченными возможностями здоровья и его социальная сущность. рассматриваются медицинский, социальный и правозащитный подходы к пониманию инвалидности, а также вопросы социализации, интеграции и инклюзии лиц с ограниченными возможностями здоровья. особое внимание уделяется влиянию социальных стереотипов и дискриминации на участие данной категории лиц в общественной жизни, а также научно-практическим аспектам обеспечения их равноправного и активного участия в обществе.

Ключевые слова: лица с ограниченными возможностями здоровья, инвалидность, социальная сущность, социализация, интеграция, инклюзия, социальная реабилитация, социальная диагностика, права человека.

Abstract: this study analyzes the scientific and theoretical foundations of the concept of a person with limited health opportunities and its social essence. it examines medical, social and human-rights-based approaches to disability, as well as the socialization, integration and inclusion of persons with disabilities. particular attention is paid to the impact of social stereotypes and discrimination on their participation in public life and to the scientific and practical aspects of ensuring their equal and active participation in society.

Keywords: persons with disabilities, limited health opportunities, disability, social essence, socialization, integration, inclusion, social rehabilitation, social diagnostics, human rights.

XX asrning so'nggi choragiga qadar nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiylashuvi, jamiyat hayotidagi ishtiroki va ijtimoiy integratsiyasi masalalariga ilmiy hamda amaliy jihatdan yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Mazkur davrda nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olishi, mehnat faoliyatida ishtirok etishi va jamiyatning turli sohalarida faol ishtirok etish imkoniyatlari ko'pincha ularning jismoniy yoki intellektual imkoniyatlari bilan cheklangan holda baholangan. Natijada ushbu toifadagi shaxslarning ijtimoiy salohiyati va individual

imkoniyatlarini to'liq namoyon etishiga to'sqinlik qiluvchi “mumkin” yoki “mumkin emas” kabi soddalashtirilgan va stereotipik yondashuvlar shakllangan.

So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy islohotlar natijasida nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatdagi o'rni va ijtimoiy maqomiga nisbatan yangicha yondashuv qaror topmoqda. Xususan, ularning boshqa fuqarolar bilan teng huquq va imkoniyatlarga egaligi, qonuniy manfaatlarining kafolatlanishi, munosib turmush kechirish, ta'lim olish va mehnat qilish huquqlarini ro'yobga chiqarish, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning turli sohalarida faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Mazkur jarayon nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyatning passiv ijtimoiy obyekti sifatida emas, balki o'z huquq va manfaatlarini amalga oshirishga qodir bo'lgan faol ijtimoiy subyekt sifatida e'tirof etish tamoyilining tobora mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan ilgari qo'llanilgan “aqli zaif”, “anomal”, “nuqson” kabi stigmatizatsiyalovchi va shaxsning individual imkoniyatlarini cheklangan holda talqin qiluvchi tushunchalar o'rniga “nogironligi bo'lgan shaxs”, “salomatlik imkoniyatlari cheklangan shaxs”, “alohida ehtiyojlari mavjud shaxs”, “aqliy rivojlanishida o'ziga xosliklar mavjud shaxs” kabi insonning qadr-qimmati va huquqlarini ustuvor qo'yuvchi zamonaviy terminologik yondashuvlar keng qo'llanila boshladi. Mazkur terminologik transformatsiya nogironlikni faqatgina tibbiy yoki biologik holat sifatida emas, balki shaxsning jamiyat bilan o'zaro munosabati, mavjud ijtimoiy muhit va institutsional shart-sharoitlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy hodisa sifatida anglashning kuchayib borayotganini ifodalaydi.

Shu asosda nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat hayotiga moslashuvi, ijtimoiy rehabilitatsiyasi, korreksion-rivojlantiruvchi yordam ko'rsatish, ijtimoiy integratsiyasi hamda inklyuziyasini ta'minlash masalalari zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bunda asosiy e'tibor shaxsning mavjud cheklovlariga emas, balki uning individual salohiyati, huquq va manfaatlarini, ijtimoiy faolligi hamda jamiyat hayotida teng ishtirok etishi uchun zarur bo'lgan imkoniyatlarni yaratishga qaratilmoqda.

Nogironlik tushunchasini ijtimoiy hodisa sifatida talqin etishda uning mazmuni faqatgina shaxsning salomatligi yoki funksional imkoniyatlaridagi cheklovlar bilan izohlanmasligi lozim. Zero, nogironlikning ijtimoiy mohiyati ko'p jihatdan shaxsning jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etishiga to'sqinlik qiluvchi jismoniy, institutsional, kommunikativ va ijtimoiy-psixologik to'siqlar bilan belgilanadi¹. Shu nuqtayi nazardan, salomatlik imkoniyatlari cheklanganlikning o'zi shaxsning to'laqonli hayot kechirishi, ta'lim olishi, mehnat qilishi va jamiyatning turli sohalarida faol ishtirok etishi uchun mutlaq to'siq sifatida qaralmasligi kerak.

Biroq, jamiyatda nogironligi bo'lgan shaxslarni “ijtimoiy yuk” yoki yordamga doimiy ehtiyoj sezuvchi passiv guruh sifatida baholash, ularning imkoniyatlarini past darajada ko'rish, shuningdek, ijtimoiy hayotdagi ishtirokini cheklovchi stereotipik qarashlar hamon mavjud. Bunday stereotiplar shaxsning ijtimoiy maqomi va o'z-o'zini namoyon etish imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatib, uning ta'lim, mehnat, madaniy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi teng

¹ Шомахмудова Р. “Ўзбекистон имконияти чекланган болаларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш ва инклюзив таълимни жорий қилиш (социальная поддержка детей с ограниченными возможностями и внедрения инклюзивного образования в Узбекистане)”. Сборник материалов международного форума “Духовно-эстетическое развитие детей с особыми нуждами”. Т., “Узинкомцентр”, 2002.

ishtirokiga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu ma'noda, nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat tomonidan qabul qilinishi, ularga nisbatan ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi va mavjud stereotiplarning bartaraf etilishi nogironlikning ijtimoiy mohiyatini tadqiq etishning muhim jihatlaridan biridir.

Demak, nogironlik muammosiga zamonaviy yondashuv shaxsdagi funksional cheklovlarni emas, balki mazkur cheklovlarning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan to'siqlarni ham kompleks tarzda o'rganishni taqozo etadi. Bunday yondashuv nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyatning teng huquqli va faol subyekti sifatida e'tirof etish, ularning ijtimoiy integratsiyasi va inklyuziyasini ta'minlash hamda ijtimoiy kamsitilishning turli shakllariga barham berish uchun nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi nogironlik va salomatlik imkoniyatlari cheklangan shaxslar masalasini faqat nazariy jihatdan talqin qilish hamda muallifning ilmiy-nazariy qarashlarini bayon etish bilangina cheklanib qolmay, balki ushbu toifadagi shaxslarning hayot sifatini yaxshilash, ularning jamiyat hayotiga samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, ijtimoiy rehabilitatsiya mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash va amaliyotda qo'llanilayotgan yondashuvlarni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalarni ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur yondashuv inson qadri, uning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda jamiyatning barcha a'zolari uchun teng imkoniyatlar yaratish tamoyillariga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Bugungi kunda mamlakatimizda inson qadri, uning huquq va manfaatlarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilangan. Bu jarayonda barcha fuqarolarimiz kabi nogironligi bo'lgan yurtdoshlarimizga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga alohida ahamiyat qaratilmoqda”².

Ushbu konseptual yondashuv nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyatning ijtimoiy himoyaga muhtoj passiv guruhi sifatida emas, balki o'z huquq va manfaatlarini amalga oshirish, ta'lim olish, mehnat qilish, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lgan teng huquqli ijtimoiy subyekt sifatida e'tirof etishni nazarda tutadi. Ularning jamiyatga integratsiyalashuvi faqat tibbiy yordam yoki moddiy qo'llab-quvvatlash bilan chegaralanmasdan, balki ta'lim, bandlik, ijtimoiy xizmatlar, rehabilitatsiya, infratuzilmadan foydalanish va ijtimoiy munosabatlarda teng ishtirok etish imkoniyatlarini ta'minlashni ham qamrab olishi lozim.

Shu bilan birga, tadqiqotda nogironlik fenomenini faqat genetik, biologik yoki tibbiy omillar bilan izohlash yetarli emasligi asoslab beriladi. Nogironlik insonning funksional holati bilan bir qatorda, uning jamiyat bilan o'zaro munosabati, ijtimoiy muhitning moslashuvchanligi, mavjud institutsional va infratuzilmaviy to'siqlar, ijtimoiy stereotiplar hamda kamsitish holatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilinadi. Nogironlikning ijtimoiy mohiyatini anglash tibbiy modeldan ijtimoiy modelga o'tish, ya'ni asosiy e'tiborni shaxsdagi cheklovlardan ko'ra uning jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etishiga to'sqinlik qiluvchi muhit va ijtimoiy omillarga qaratishni taqozo etadi³. O'zbekiston Prezidenti murojaatida ham nogironlikni belgilashning tibbiy modelidan

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “3-dekabr — Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan O'zbekiston xalqiga murojaati”dan. 2022 yil 2 dekabr.

³ Назарова Д.А. Инклюзив таълим жараёни иштирокчиларининг ҳамкорлиги муаммолари ва уларнинг ечимлари. 2017 йил.

umume'tirof etilgan ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o'tish muhim vazifa sifatida qayd etilgan.

Demak, mazkur tadqiqotning metodologik yondashuvi nogironlikni individual biologik yoki tibbiy holat doirasida emas, balki shaxs va ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimida yuzaga keladigan ijtimoiy hodisa sifatida o'rganishga asoslanadi. Bunday yondashuv nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy maqomi, jamiyatga integratsiyalashuvi, rehabilitatsiyasi va ijtimoiy faolligini ta'minlashning samarali mexanizmlarini aniqlash hamda mavjud ijtimoiy to'siqlarni bartaraf etishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Yaqin o'tmishga qadar nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini, ularni davolash va rehabilitatsiya qilish usullari, nogironlik maqomini belgilash, shuningdek, ularning tibbiy-ijtimoiy muammolari asosan tibbiy yondashuv doirasida talqin etib kelindi. Bunday yondashuvda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish masalasi ko'pincha “me'yoriy” yoki “sog'lom” deb qabul qilingan shaxslarning ehtiyojlari va imkoniyatlari bilan taqqoslash asosida baholangan⁴. Natijada nogironlikning ijtimoiy, madaniy, psixologik va huquqiy jihatlarini yetarlicha kompleks tadqiq etilmagan.

Mazkur holat nogironlik fenomenining ayrim jihatlarini qayta ko'rib chiqish, mavjud ilmiy-nazariy qarashlarni tanqidiy tahlil qilish va amaliy yondashuvlarni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Bizningcha, bunday tanqidiy yondashuv nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan insonparvarlik, ijtimoiy adolat, tenglik va hurmat tamoyillarini mustahkamlash bilan bir qatorda, ularni davolash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va rehabilitatsiya qilishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga ham xizmat qiladi. Shu jihatdan, nogironlik masalasini faqat tibbiy muammo sifatida emas, balki inson huquqlari, ijtimoiy tenglik va jamiyatning inklyuziv rivojlanishi bilan bog'liq kompleks hodisa sifatida tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida qayd etilgan muammolar majmuasini tizimli ravishda o'rganish nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyatdan ajratish yoki ularni faqat maxsus ixtisoslashtirilgan muassasalarda saqlashga asoslangan yondashuvlarning ijtimoiy oqibatlarini ham tahlil qilishni taqozo etadi. Tarixiy va ijtimoiy amaliyotda nogironligi bo'lgan shaxslarni segregatsiya qilish, ularni umumiy ijtimoiy muhitdan ajratish va maxsus muassasalarga joylashtirish holatlari mavjud bo'lgan. Bunday amaliyot shaxsning jamiyat bilan tabiiy ijtimoiy aloqalarini cheklab, uning mustaqil hayot kechirish, ta'lim olish, mehnat qilish va jamoatchilik hayotida ishtirok etish imkoniyatlarini toraytirishi mumkin.

Ayniqsa, ayrim oilalarda nogironlik holatini ijtimoiy stigma, uyat yoki oilaning obro'siga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi holat sifatida qabul qilish ham ushbu muammoning murakkab ijtimoiy-psixologik jihatlaridan biridir. Bunday qarashlar natijasida nogironligi bo'lgan shaxsning holatini keng ijtimoiy muhitdan yashirish, uning ta'lim olish va ijtimoiy munosabatlarga kirishish imkoniyatlarini cheklash, shuningdek, uning individual ehtiyoj va qobiliyatlarini yetarlicha inobatga olmaslik holatlari yuzaga kelishi mumkin. Ayniqsa, bolalik davrida rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari yoki ruhiy-jismoniy cheklovlar aniqlangan taqdirda, oilaning yetarli darajada ma'lumotga ega emasligi, ijtimoiy stereotiplar va institutsional to'siqlar bolaning jamiyatdan chetlashishiga sabab bo'lishi ehtimoli mavjud.

⁴ Кодирова Ф.У. Инклюзив ва корренкцион АРТ-технологиялари. Т., 2022 йил.

Shu nuqtayi nazardan, nogironligi bo'lgan shaxslarni “o'rganilishi lozim bo'lgan obyekt” sifatida emas, balki o'z huquq va manfaatlariga, individual ehtiyojlari va ijtimoiy faollik salohiyatiga ega bo'lgan mustaqil ijtimoiy subyekt sifatida e'tirof etish zamonaviy ilmiy yondashuvning muhim tamoyillaridan biridir. Bunday konseptual o'zgarish nogironlikka nisbatan paternalistik va segregatsion qarashlardan voz kechib, ijtimoiy integratsiya, inklyuziya, teng imkoniyatlar va inson qadr-qimmatini ta'minlashga asoslangan yondashuvlarni rivojlantirishni talab etadi.

Bundan tashqari, mazkur muammoning dolzarbligi nogironligi bo'lgan shaxslarga tibbiy va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan ayrim muassasalar faoliyatida inson huquqlari, tibbiy etika va inson qadr-qimmatini ta'minlash bilan bog'liq muammolarning mavjudligi bilan ham belgilanadi. Xususan, ayrim holatlarda bunday muassasalarda davolash va parvarish jarayonining insonparvarlik, shaxsiy daxlsizlik hamda huquq va erkinliklarni hurmat qilish tamoyillariga to'liq mos kelmasligi, shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini cheklovchi amaliyotlarning yuzaga kelishi ehtimoli mavjud⁵.

Mazkur holatlar nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqiy maqomini, ularning tibbiy xizmatlardan foydalanish jarayonidagi huquq va manfaatlarini hamda institutsional muhitda inson qadr-qimmatini ta'minlash mexanizmlarini chuqur o'rganishni taqozo etadi. Ayniqsa, tibbiy yordam va rehabilitatsiya jarayonlarida shaxsning roziligi, shaxsiy daxlsizligi, axborot olish huquqi va individual ehtiyojlarini hisobga olish masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur.

Shu nuqtayi nazardan, nogironligi bo'lgan shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi maxsus tibbiy va ijtimoiy muassasalarda inson huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish, tibbiy xizmatlarning sifat va insonparvarlik mezonlariga muvofiqligini ta'minlash, shuningdek, huquq buzilishlarining oldini olishga qaratilgan institutsional nazorat tizimlarini kuchaytirish nogironlikning ijtimoiy mohiyatini tadqiq etishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'z navbatida, maxsus ta'lim tizimi tarixan nogironligi bo'lgan, rivojlanishida turli o'ziga xosliklar mavjud bo'lgan bolalarning umumta'lim muassasalarida ta'lim olishi murakkab yoki maqsadga muvofiq emas, degan qarashlar asosida shakllangan. Mazkur yondashuv natijasida maxsus ehtiyojlari mavjud bo'lgan bolalarni umumiy ta'lim muhitidan ajratib, alohida ta'lim muassasalarida o'qitish amaliyoti keng tarqalgan. Bunday ta'lim modeli ayrim hollarda bolaning ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlagan bo'lsa-da, uning tengdoshlari bilan muntazam ijtimoiy aloqaga kirishishi, jamoaviy faoliyatda ishtirok etishi va keyinchalik mustaqil ijtimoiy hayotga moslashishi uchun zarur bo'lgan tabiiy ijtimoiy muhitning cheklanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ayniqsa, maxsus maktab-internatlarda ta'lim oluvchi bolalarning uzoq vaqt davomida oilaviy muhitdan ajralib qolishi ularning ijtimoiylashuvi va psixologik holatiga muayyan ta'sir ko'rsatishi ehtimolini yuzaga keltiradi. Oilaviy munosabatlar va yaqin ijtimoiy muhitdan uzoqlashish ayrim hollarda emotsional zo'rliq, ijtimoiy aloqalarning torayishi, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmasligi hamda ijtimoiy qaramlikning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli zamonaviy ta'lim siyosatida nogironligi bo'lgan

⁵ Нурмухамедова Л.Ш. Ногирон болаларнинг ҳуқуқий асослари ва илмий-назарий масалалари. Дифектолог кадрларни тайёрлаш жараёнига инновацион таълим технологияларини тадбиқ этиш: муаммолар ва истиқболлар. Т., 2014.

bolalarni imkon qadar oilaviy va tabiiy ijtimoiy muhitdan ajratmagan holda ta'lim olishiga sharoit yaratish, ularning individual ta'limiy ehtiyojlarini hisobga olish va inklyuziv ta'lim tamoyillarini rivojlantirish muhim vazifa sifatida qaralmoqda.

Tadqiqot jarayonida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, nogironlikning mazmun-mohiyati, uning ijtimoiy xususiyatlari va nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat hayotidagi o'rni to'g'risidagi tasavvurlarni kengaytirishga ehtiyoj mavjud. Xususan, ota-onalar, pedagoglar, ta'lim muassasalari jamoalari va mahalla faollarining nogironlik masalasiga oid bilim va kompetensiyalarini oshirish, ular o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, nogironligi bo'lgan bolalarning ota-onalari uchun tizimlashtirilgan metodik tavsiyalar, amaliy yo'riqnomalar va pedagogik-psixologik maslahatlar tizimini takomillashtirish zarur.

Bundan tashqari, maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarni uy sharoitida yakka tartibda ta'lim bilan qamrab olish jarayonida zarur o'quv-metodik vositalar, maxsus pedagogik texnologiyalar va individual ta'lim dasturlari bilan ta'minlash masalasi ham alohida e'tiborni talab etadi. Mazkur yo'nalishdagi mavjud imkoniyatlarni hududlar kesimida takomillashtirish, ta'lim xizmatlarining sifati va qulayligini oshirish hamda oila-maktab-mahalla hamkorligini mustahkamlash nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim olish va ijtimoiylashuv imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur dissertatsiya nogironlik tushunchasining ijtimoiy mohiyatini ilmiy jihatdan yoritish, nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatga integratsiyalashuvi va inklyuziyasining nazariy hamda amaliy asoslarini ochib berish, shuningdek, bo'lajak mutaxassislarining ushbu sohadagi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik manba sifatida ahamiyat kasb etishi ko'zda tutiladi. Tadqiqot natijalari “Yangi O'zbekiston va inklyuziv jamiyat sari” tamoyili asosida teng imkoniyatlar, ijtimoiy adolat va inson qadr-qimmatini ta'minlashga qaratilgan yondashuvlarni rivojlantirishga nazariy va amaliy hissa qo'shishi mumkin.

Falsafa insonning intellektual va ma'naviy jihatdan kamol topishi, uning borliq, jamiyat va o'z-o'ziga munosabatini anglashiga ko'maklashuvchi fundamental ijtimoiy-gumanitar fanlardan biridir. Asrlar davomida shakllanib, takomillashib kelgan falsafiy tafakkur an'anasi insonning yuksak tafakkur, mustaqil dunyoqarash, axloqiy mas'uliyat va ma'naviy fazilatlariga ega bo'lgan shaxs sifatida shakllanishi masalalarini o'zining muhim tadqiqot obyektlaridan biri sifatida qarab kelgan. Shu ma'noda, falsafa inson qadr-qimmatini, erkinligi, tengligi, adolati va jamiyatdagi munosabatlarning mazmun-mohiyatini anglash uchun muhim nazariy-metodologik asos vazifasini bajaradi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, tarixiy-madaniy an'analar hamda zamonaviy ilmiy tafakkurning rivojlanishi bilan bir qatorda, jamiyat haqidagi falsafiy qarashlar ham doimiy ravishda yangilanib va boyib boradi⁶. Mazkur jarayon ijtimoiy hodisalarni statik holatda emas, balki ularning tarixiy, ijtimoiy, madaniy va institutsional o'zgarishlari bilan uzviy bog'liqlikda o'rganishni taqozo etadi. Natijada inson va jamiyat munosabatlarini tadqiq etishga yo'naltirilgan yangi ilmiy yondashuvlar, konsepsiyalar va metodologik tamoyillarning shakllanishi uchun zarur nazariy asos vujudga keladi.

⁶ Мўминова Л.Р., Аҳмедова З.М. “Инклюзив таълим” Ўқув қўлланма. Т., 2019 йил.

Shu nuqtayi nazardan, nogironlik fenomenini o'rganish ham zamonaviy falsafiy tafakkurning inson qadr-qimmati, ijtimoiy adolat, tenglik, erkinlik va inklyuziya kabi fundamental kategoriyalari bilan bevosita bog'liqdir. Nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatdagi o'rni va ijtimoiy maqomini faqat biologik yoki tibbiy xususiyatlar bilan izohlash ularning ijtimoiy mavjudligi va insoniy salohiyatini to'laqonli anglash imkonini bermaydi. Shu sababli mazkur hodisani shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy muhit, qadriyatlar tizimi va mavjud stereotiplar kontekstida kompleks o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni diagnostika qilish, korreksiyalash, reabilitatsiya va ijtimoiy integratsiya qilishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar esa turli fanlar, xususan, tibbiyot, psixologiya, pedagogika, sotsiologiya va falsafaning o'zaro integratsiyasi natijasida rivojlanib bormoqda. Bunday fanlararo yondashuv nogironlik bilan bog'liq muammolarni faqat individual cheklovlar doirasida emas, balki ularning ijtimoiy sabab va oqibatlarini hisobga olgan holda o'rganish imkonini beradi.

Shu jihatdan, mazkur tadqiqotda falsafiy-metodologik yondashuvlardan foydalanish nogironlikning ijtimoiy mohiyatini chuqurroq anglash, mavjud stereotip va ijtimoiy to'siqlarni tanqidiy tahlil qilish, nogironligi bo'lgan shaxslarning insoniy qadr-qimmati va teng huquqliligini nazariy jihatdan asoslash hamda ularning jamiyatga integratsiyalashuvi uchun samarali ijtimoiy mexanizmlarni aniqlashga xizmat qiladi. Demak, nogironlik muammosini falsafiy jihatdan tadqiq etish nafaqat mavjud ijtimoiy voqelikni anglash, balki insonparvar, adolatli va inklyuziv jamiyatni shakllantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat a'zolarining turli tabiiy, biologik, psixologik va ijtimoiy xususiyatlari, ularning hayotiy faoliyati va ijtimoiy mavqeidagi farqlar, shuningdek, nogironlik bilan bog'liq holatlarning turli bosqich va ko'rinishlarini kompleks ravishda o'rganish, mazkur holatlarning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda mavjud ijtimoiy to'siqlarni bartaraf etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish zamonaviy jamiyatning dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, inklyuziv jamiyatni shakllantirish sharoitida shaxsning individual xususiyatlari bilan bir qatorda, uning ijtimoiy muhit, ta'lim, oila va jamoatchilik institutlari bilan o'zaro munosabatlarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bizningcha, inklyuziv ijtimoiy muhitni shakllantirish bilan bog'liq jarayonlarni o'rganuvchi mutaxassislarning diagnostik faoliyati aniq ilmiy va amaliy maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bunda asosiy vazifa nogironligi bo'lgan shaxsning ta'lim olishi, bilim va ko'nikmalarni egallashi, ijtimoiy munosabatlarga kirishishi hamda shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat. Ijtimoiy diagnostika jarayonida shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, ijtimoiy muhitdagi faoliyati, oilaviy sharoiti, ta'lim olish imkoniyatlari, kommunikativ ehtiyojlari va mavjud ijtimoiy to'siqlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tizimli ravishda yig'ish, kuzatish va tahlil qilish muhim o'rin tutadi. Mazkur ma'lumotlarning kompleks tahlili asosida shaxsga yo'naltirilgan ta'limiy, tarbiyaviy, psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari belgilash hamda ularning samaradorligini dinamik ravishda baholab borish mumkin.

Kishilik taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridan boshlab inson salomatligi bilan bog'liq holatlarni aniqlash va tasniflash, avvalo, tibbiy mezonlar asosida amalga oshirib kelingan. Bunda organizm faoliyatidagi fiziologik o'zgarishlar, jarohatlar, kasalliklar yoki turli funksional buzilishlar klinik belgilar asosida tashxis qilinadi. Biroq nogironlik bilan bog'liq ko'plab

holatlarni faqat tibbiy mezonlar asosida baholash shaxsning real hayot sharoitlari va ijtimoiy ehtiyojlarini to'liq aks ettira olmaydi. Chunki nogironligi bo'lgan shaxsning jamiyatdagi faoliyati va hayot sifati nafaqat uning funksional holati, balki psixologik xususiyatlari, kommunikativ imkoniyatlari, oilaviy muhiti, ta'lim olish sharoitlari, moddiy ta'minoti, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi va jamiyatdagi munosabatlar bilan ham chambarchas bog'liq.

Shu sababli nogironlikning ijtimoiy mohiyatini o'rganishda shaxsning individual-psixologik holati, xulq-atvori, emotsional kechinmalari, ijtimoiy munosabatlari hamda yashash muhitida mavjud bo'lgan moddiy va ma'naviy omillarni kompleks tahlil qilish talab etiladi. Bunday yondashuv ijtimoiy soha mutaxassislaridan nafaqat tegishli nazariy bilimlarni, balki yuqori darajadagi kasbiy kompetensiya, diagnostik ko'nikma, axloqiy mas'uliyat va insonparvarlik tamoyillariga qat'iy rioya etishni ham talab qiladi.

Ijtimoiy diagnostikaning muhim jihati shundaki, uning maqsadi shaxsni muayyan “kamchilik” yoki “nuqson” asosida tasniflash emas, balki uning mavjud imkoniyatlari, ehtiyojlari, rivojlanish salohiyati va ijtimoiy muhitdagi to'siqlarni aniqlashdan iborat bo'lishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, diagnostik jarayon nogironligi bo'lgan shaxsni ijtimoiy yordamning passiv obyekti sifatida emas, balki o'z ehtiyojlari, huquqlari va imkoniyatlariga ega bo'lgan faol ijtimoiy subyekt sifatida ko'rib chiqishga asoslanishi zarur⁷.

Demak, zamonaviy ijtimoiy diagnostika nogironlikni faqat tibbiy holat sifatida qayd etish bilan cheklanmay, shaxsning individual xususiyatlari va ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aniqlashga qaratilgan kompleks metodologik yondashuvni ifodalaydi. Mazkur yondashuv nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim va tarbiya jarayonidagi ishtirokini kengaytirish, ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash, mavjud to'siqlarni aniqlash va bartaraf etish hamda inklyuziv jamiyatni shakllantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “3-dekabr — Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan O'zbekiston xalqiga murojaati” dan. 2022 yil 2 dekabr.
2. Shomaxmudova R. “O'zbekiston imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va inklyuziv ta'limni joriy qilish (социальная поддержка детей с ограниченными возможностями и внедрения инклюзивного образования в Узбекистане)”. Сборник материалов международного форума “Духовно-эстетическое развитие детей с особыми нуждами”. Т., “Узинкомцентр”, 2002.
3. Nazarova D.A. Inklyuziv ta'lim jarayoni ishtirokchilarining hamkorligi muammolari va ularning yechimlari. 2017 yil.
4. Qodirova F.U. Inklyuziv va korrenktsion ART-texnologiyalari. Т., 2022 yil.
5. Nurmuhamedova L.Sh. Nogiron bolalarning huquqiy asoslari va ilmiy-nazariy masalalari. Difektolog kadrlarni tayyorlash jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini tadbiq etish: muammolar va istiqbollar. Т., 2014.
6. Mo'minova L.R., Ahmedova Z.M. “Inklyuziv ta'lim” O'quv qo'llanma. Т., 2019 yil.
7. Xamidova M.U. Maxsus ta'lim va tarbiya. Т., “Fan va Texnologiya”, 2018 yil. 10-bet.

⁷ Хамидова М.У. Махсус таълим ва тарбия. Т., “Fan va Texnologiya”, 2018 йил. 10-бет.